

**“LUG’ATI CHIG’ATOYI VA TURKIY USMONIY” DAGI  
ETNONIMLAR**

**Xusanov Nishonboy Abdusattorovich**  
filologiya fanlari doktori, professor Alisher Navoyi nomidagi  
Toshkent davlat O’zbek tili va adabiyoti universiteti  
[xusanovnishonboy@navoiy-uni.uz](mailto:xusanovnishonboy@navoiy-uni.uz)

O’zbek tilining jahonda tanilishiga katta hissa qo’shgan lug‘atshunos olimlardan biri Shayx Sulaymon Buxoriydir. Ona tilimizning fidoyi targ‘ibotchisi, olim, sayyoh, noshir, taniqli diplomat, iste’dodli shoir Shayx Sulaymon Buxoroning Qorako‘l navohisida 1821yilda tavallud topadi va Buxoro madrasalarida tahsil oladi. 1847 yilda Buxoro amiri Nasurilloxon (1827-1860) uni Istambuldagagi “O’zbeklar takyasi”ga (muhojir o’zbeklar uyushmasiga) rais va amirlikning Istambuldagagi shehbenderi (elchisi) qilib tayinlaydi. Sulaymon Buxoriy shu yili Istanbulga kelganini Kuprulizoda ham tasdiqlaydi: “u 1847 yili turk poytaxtiga keldi va o’zbeklar takyasining raisi hamda O’rta Osiyoning elchisi sifatida ish boshlad” (1,224). Sulaymon Buxoriy elchi va “Muhojirin” nomli ilmiy jamiyatning raisi sifatida ko‘plab ishlarni amalgalashiradi: Istanbulda So‘fi Olloyorning “Su’batul ojizin”, Ahmad Yassaviyning “Hikmatlar”, Amir Umarxonning “Devon” va boshqa asarlar birinchi marta sop etiladi. Xususan, 1299 hijriy yilida chop etilgan Ahmad Yassaviyning “Hikmatlar”ida shunday ma'lumot bor: “Bu asar birinchi marta “Muhojirin” jamiyatining marhum raisi Sulaymon Afandining tashabbusi va say-harakatlari bilan chop etilmoqda” (2,43)

1878 yilda Majoristonning Sakden shahrida turkiyshunoslarning xalqaro anjumanı chaqiriladi. “Muhojirin” ilmiy jamiyatı va chig’atoy turkiylari (o’zbeklari) nomidan bu anjumanga Sulaymon Buxoriy nomzodi ko‘rsatiladi. Sulaymon Buxoriy Usmonli Turk davlatining delegasiyasi rahbari sifatida Mojaristonga boradi. Ularni major xalqi juda iliq va yaxshi kutib oladi. Anjuman ahli Sulaymon Buxoriy chig’atoy turkiylaridan ekanligini bilgandan so‘ng chig’atoy (eski o’zbek) tiliga nihoyatda qiziqib qolishadi va Sulaymon Buxoriydan chig’atoycha-turkcha lug‘at tuzib berishni iltimos qilishadi. Tavfiq Muhammadning “Yodgori Majoriston: asri Abdulhamidxon”. (Istanbul: Mehron, 1294 (1877). – B. 16.) asarida elchi Shayx Sulaymon Afandi Buxoriyning anjumandagi faoliyatiga hayotiga oid qiziqrarli fotosurat va ma'lumot keltirilgan. Anjumandan qaytgandan so‘ng u turkiyshunos olimlarning iltimosiga binoan hamda chig’atoy tili leksik boyligini ko‘rsatish maqsadida lug‘atni tuzishga kirishadi. Lug‘atni tuzishda Sulaymon Buxoriy eski turkiy va o’zbek tilidagi manbalardan – lug‘atlardan, yuzlab tarixiy, badiiy asarlardan, folklor materiallaridan, shevalar hamda jonli so‘zlashuvdagi so‘zlardan unumli foydalanadi. Sulaymon Buxoriy o’sha davrda mashhur bo‘lgan “Sangloh”, “Xulosayi Abbosiy”, “Bado’ye-ul lug‘at”, “Ahmad Vofiq poshshoning lug‘ati”dan va boshqa lug‘atlardan ham foydalangan. Bu esa lug‘atning mukammal bo‘lishiga asos bo‘lgan, chunki “qadimiy

va boy lug‘at an'analariga asoslanganda yaxshi va ishonchli lug‘at tuziladi” (3,39). “Lug‘ati chig‘atoyi va turki usmoniy” 1881 yilda Istambuldag‘i “Mehron” matbaasida nashr qilinadi (4). Sulaymon Buxoriyning hayotlik davridayoq “Lug‘ati chig‘atoyi va turki usmoniy” mashhur bo‘lib ketgan edi. Major olimi Ig‘onos Qunush bu lug‘atni topish va Sulaymon Buxoriy bilan uchrashish maqsadida 1881 yilda Istambulga keladi. Taniqli Major turkiyshunos olimi Igonos Kunush o‘zining “Turk xalq adabiyoti” kitobida shunday yozadi: “Biror soat o‘tgandan so‘ng shayxni ko‘rmakka ruxsat berishdi. Mehmonxonaning pardali eshigi ochilib, ichkariga kirdim. Yog‘och karavotda o‘tirgan va qo‘lida tasbeh, boshiga oq salla o‘ragan qariyaga ko‘zim tushdi. Bu kishi Shayx Sulaymon Buxoriy edi.... Hurmatli janob, bu kitobingiz chop etilganidan xabarim bor, ammo Pesht kutubxonlarida bu kitob topilmaydi. Mening bu so‘zlarimdan so‘ng Shayx kitobni keltirdi: Shayx Sulaymon Buxoriy. “Lug‘ati chig‘atoyi va turki usmoniy. Istanbul, 1298. Muhtaram Shayxning qo‘lidan kitobni olganimdan so‘ng u bilan quyuq xayrlashdim” (5,342). “Lug‘ati chig‘atoyi va turki usmoniy”ning Ovrupoda keng tanilishiga va tarqalishiga major olimi Ig‘onos Qunush katta hissa qo‘shadi. U bu kitobni nemis tiliga tarjima qiladi va bu lug‘at 1902 yilda Budapeshtda nashr qilinadi. (6). “Lug‘ati chig‘atoyi va turki usmoniy” leksikologik, terminologik va leksikografik ishlar uchun o‘ziga xos manba bo‘lib, undan turli sohalarga oid atamalar lug‘atiga materiallar to‘plashda, unutilib borayotgan yuzlab turkiy so‘zlarni tiklashda muhim ahamiyatga ega. “Lug‘ati chig‘atoyi va turki usmoniy”da Markaziy Osiyoda yashagan o‘nlab etnonimlar haqida qiziqarli ma'lumotlar berilgan. Ma'lumki, nomshunoslikning alohida bir bo‘lagi hisoblangan bu so‘z lotincha etno –“urug”, “qabila”, “elat” hamda onoma “ot”, “nom” so‘zidan olingan.

Etnonimlarni tadqiq etish murakkab va mashaqqatli jarayon: qadimgi urug‘lar, qabilalarning qaerda yashagani, qanday nomlangani va hozirgi vaqtida ular qaerlarda istiqomat qilishi haqida ma'lumotlar tarixiy asarlardagina saqlanib qolgan. “Lug‘ati chig‘atoyi va turki usmoniy”da Markaziy Osiyo xalqlariga oid etnonimlar to‘g‘risida qiziqarli faktlar mavjud.

TURK ترک – zamma ile asl o‘lan uch sulalang biridirki, hazret Nuh alayhisselamng evladi Yafasqa isharetdir. Turk eng birinchi evladi ve Turkistan xanlарнг evvelidir; Yofas o‘g‘lani ham derlar; sehrayi rustayi.

Navoiy:

Navoiy turklarning tarki tutsa ayb qilmangkim,

Anga bir turkman mahvash g‘ami mahkam tuloshibdur.(108)

Turk etnonimii VI asrda qabilalar harbiy uyushmasini, Qoshg‘ariyning «Devonu lug‘atit turk» asarida turkiy qabilalarni, Alisher Navoiy asarlarida turkiy tilda so‘zlashuvchilarni, o‘zbeklarni ifodalagan va urug‘, elat, kuchli, qudratli, alohida jangchi guruhi, dubulg‘a, sodda ma’nolarida islatilgan. Sulaymon Buxoriy atrok so‘zining yana bir atoqli ot –gidronimni ifodalashini ko‘rsatgan.

ATPAK اترک – Eranng shimalinda qabaili Turkmaniya ichinda vaqi' bir nahrng ismidirki, yavmud qabilasi urada sakindir.

Qo‘shuq:

Atrak bo‘yundagi barcha turkmanlar,

Do‘stum xabar bergi n omon-esonmi (4)

TO'RT ULUS – تورت اولوس – tavayifi atrakdan eng meshhur o'lan berlas, tarxan ve suldur ve qiyet qabilelarina deynur; Hind ve Rum Eran ve To'rana daxi derlar (115)

UG'UZ - اوغوز saf; pak tiynet; safdurun; sahra; Xisrav bin Qaraxang alemidir; xanan Buga mensub ve qabail turka ablek avvel vez' ism edan, bu zat o'lub tarix atrak daxi eng esatirindan bashlar.

Misol:

Otimdur O'g'uz, bilinglar ayon,

Nomimdur Xisrav bilinglar yaqin.(35).

QIPChOQ – قىچاق – Farg'ane taraflarinde meskun buyuk bir ulus ve qabiledir; Deshti Qipchaq kebir merufdir (227; bir qabile (243)

QORLIK – قارلىخ – tevaif atrakden bir qabile ismidir; Xive hukmdarlari xorazmiylarge mensubdir; qaliq daxi deyinulur (218).

QIRG'IZ – قىرغىز – qazaq taifasindendir, Asiya Vesating shimalinde meskundirlar; Deshti Qipchaq kebir.

Misol:

Jin yuyunda churchut qalmoqtur,

Ikki qardosh qirg'iz qipchoqtur(245)

TURKMON – ترکمان – Balx ile bahri Hazer Amuderya ile Rus ve Eran hududi bayninde maekun ve mutamkin qabaila derlar.

TURKMONLIK – ترکمانلىك – Merv; Saraxis; atrakng Gurgan Tajan Axal arazi vasiyasinda iqamet edan taka yavmut, sarig'; salur; ersali qabilalarni munhasirdir (108).

QAZOQ – قزاق – qazaq; bexanuman; Buxara ve Xarazm shimalinde Deshti Qipchaq kebirda meskun azim bir ulus ve qebail ismidir.

Misol:

Zol dedikim qazoq erkanda shoh,

Tig' chekibkim chekar erdi sipoh.(219)

TOJIK – تاجيک – yibanji ma'nasinadir; avail islamng farsdan turkka arabi qarishub ehtida edanlare yibanchi ma'nasina tajik ve tajiq deyinmisdir; ve shamdigi halda Asiya Vesatida farsi tekellum edanlare tajik ve turkiy tekellum edanlare tat ta'bır edarler.

Misol:

Turku tojik o'zbeku sahroyilar,

Dashti Qipchoqda gadoyu boylar(98)

SORT – سارت – Turkistande mutevattin o'lan ashaira deyinilurki, asli tajik ve fersidir; tat daxi derlar (178).

O'zbeklarning o'troq qismi – shahar aholisi sart deb, shuningdek Chirchiq, Ohangaron, Qoradaryo va Norin daryosi vodiysida yashovchi aholi, sartlar deyilgan. Sart atamasi etnik ma'noni emas, kishilarning kasbi, xo'jaligi, turmush tarzini anglatgan. Sart atamasi aslida sanskrit tilidan olingan bo'lib "savdogar, shaharlik" ma'nolarini anglatgan. Navoyi asarlarida, Sulaymon Buxoriy lug'atida forsiy tilga nisbatan ishlatilgan.

Umuman, "Lug'ati chig'afoyi va turki usmoniyda ikki yuzdan ortiq etnonimga izoh berilgan bo'lib, lug'at xalqlarning o'zliklarini anglashlarida va urug'larning tarixini tadqiq etishlarida muhim manba hisolanadi.

## Adabiyotlar

- کوپریلی زاده محمد فواد ملی تتعبلار مجموعه سی استانبول 1331 1.224
- خواجہ احمد یسی حکمت استانبول 1298 2.
3. Бабкин А.Ф. Филологические словари и их источники. Проблема толкования слов и филологических словарях. Рига, 1963. С 39.
- شیخ سلیمان افندی بخاری لغت چغتای و ترکی عثمانی .. استانبول 1298 4.
- اغاناس قونوش تورک جلق ادیاتی استانبول 1334 342 5.
- 6.. Sejx Sulejman Efendi's Cagataj-Osmanisches Wo'rterbuch. Verkürzte und mit deutscher Übersetzung versehene Ausgabe. Bearbeitet von DR IGNAZ KUNOS. BUDAPEST. 1902.